



ZAMONAVIY DARSLAR JARAYONIDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Mehriddinova Mehriniso Otabekovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Innovatsion davrda yoshlarni darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tajribalarga boy ko'rinishda yetkazib berish, o'quvchilarni fikriy bog'liqligini, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, har qanday muammoni hal etishda erkin va ochiq fikrlashga mahoratni shakllantirishda yordam beradi. Har qanday fan mavzularida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikr yuritishga, ijod etish va izlanishga undaydi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, texnologiya, ilm, yangilik, skarabey texnologiyasi, bumerang texnologiyasi, veer texnologiyasi.

Innovatsiya (ingilizcha "innova" - yangilik kiritish, yangiliklar) tushunchasi bugungi kunda keng qo'llanilayotgan tushunchalardan biridir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish va uni amalga oshirishda interaktiv metodlardan foydalanishdir.

Pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

-o'quvchini dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqillik fikrlash, ijod etish va izlanishga undash,

-o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlari doimiy ravishda har masalaga ijobiy yondashgan holda kuchaytirish;

-pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish.

Skarabey texnologiyasi- interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash imkonini yaratadi, mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bo'limning sifati tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi. U ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasida bog'liqliklarni ochishga imkon yaratadi. Skarabey texnologiyasi ko'p tarmoqli bo'lib undan o'quv materiallarini turli bosqichlarni o'rganishda foydalanadi:

-o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida (aqliy hujum)

-mavzuni o'rganish jarayonida -uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash, ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar, xarakterni aniqlash mavzuni yanada chuqur o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish.

- oxirida -olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida. Bunda, faoliyatli fikrlash bilish xususiyatlari inobatga olgan holda reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Metodning asosiy tamoyili va foydasi barcha ishtirokchilarni ishlab chiqqan g'oyalari talqinini Mutlaq taqiqlash har qanday luqma hazil mutoyibani rag'batlantirishdir. Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi



mashg'ulot rahbariga bog'liq. Fikrlar hujumi ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak. Mashg'ulotning davomiyligi 1 soatgacha bo'lishi mumkin.

Bumerang texnologiyasi- mazkur texnologiya 1 mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish erkin egallashga yo'naltirilgan u turli xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarining turli topshiriqlarni bajarish navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi roli bo'lishi, kerakli balmi to'plashga imkoniyat beradi.

“Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqiy shakllantirishga imkoniyat yaratadi. Xotirani fikrlarni, g'oyalarni, dalillarni, yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi: jamoa bilan ishlash mahorati, muomalalik, xushfe'llik, xushchaqchaqlik, ko'nikuvchanlik, o'zgalar fikriga hurmat, faollik rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish o'zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar, muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularda qisqa bir xilda javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar. Bu savollar oldindan “ ha” yoki “yo`q” tipidagi to'g'ri, ochiq javoblarni ko'zda tutadi.

Ko'ndalang so'roq bir- biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga xos axbarotni izlash hamda dalillarni oponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ko'ndalang so'roq paytida munozaraga kirish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishmaydi.

“Veer” texnologiyasi- murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan texnologiyadir. Uning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axbarot beriladi. Ayni paytda ularning har bir jihati alohida muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzalligi, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni, yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“Veer” texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“Veer” texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Masalan,

- boshida o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur faxmlash va anglash
- yakunlash bosqichida: o'z bilimlarini tartibga solish

Xulosa qilib aytganda, interaktiv metodlar- jamoa bo'lib fikrlash demakdir. Bu yangi pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu



metodlarning o'ziga xosligi shundagi, ular faqat pedagog va o'quvchi talablarini birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. Toshkent 2005
2. M. Jo'raboyev. Geografiya o'qitishda predmetlararo aloqa.-Toshkent: O'qituvchi, 1987-yil
3. H. Vahobov, N.R. Alimqulov, N.B. Sultanova. Geografiya o'qitish metodikasi. Darslik Toshkent 2020-yil.
4. [https:// google book.uz](https://googlebook.uz)
5. [https:// google.com/ cluster.html](https://google.com/cluster.html).